

4. Enazarov T.J., Karimjonova V.A., Enazarova M.S., Mahmadiyev Sh.S., Rixsiyeva K.G. O'zbek shevashpisligi. – Toshkent: Universitet, 2012. – B. 184.
5. Ashitboyev S. O'zbek dialektologiyasi – T.: "Navro'z", 2016.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk keladimizni mard va olijanob xalqimiz bilan biga quhamiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Харажатлар стратегияси" тўғрисидаги Фармони (Халқ сўзи 2017 йил, 8 феврал).
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори "Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари" тўғрисида (Халқ сўзи 2017 йил, 21 апрел).
4. Ashitboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: 2013.
5. Бегалиев М.Қ. Ўзбек тилининг Қорабўлоқ шеvasи лексикаси. – Toshkent: Иқтисод-Молия, 2007.
6. Diacstology. J.K. Chambers and Peter Trudgill. Cambridge University Press.-2004.
7. Джураев А.Б. Теоретические основы ареального исследования узбековязычного массива. – Ташкент: 1991.
8. Доннёрров Х. Кипчок диалектларининг лексикаси. –Ташкент: Фан, 1997.
9. Ибрагимова З.Ю. Қорақалпоғистон ўзбек шеvasлари кишлоқ хўжалиги лексикасининг лингвогеографик тадқиқи. НДА, 2009
10. Муродова Н. Ўзбек адабий тили ва шеvasлар лексикасининг киёсий тадқиқи. –Ташкент: Фан, 2005.
11. Nafasov T. Qashqadalyo o'zbek xalq so'zlati. – Toshkent: Muhatir, 2011.
12. Шимова Н. Қашқадарё ўзбек кишлоқ шеvasлари лексикаси. – Қарши: Насаф, 2000.

Internet saytlari

1. www.turk.dili.google.com.tr
2. http://www.ut.uz/eng/today/engore_tecozimizet_discovegu.muz
3. <http://www.schneid.de/sprache/linguistik/ling11.pdf>
4. <http://www.uni-leipzig.de/~fseer/materialien/Texte/Lexikologie.pdf>

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

Ro'yxatga olindi:

№ БД – 5230100 – 3.01

2018 yil "26" 05

Oliy va O'rtta maxsus ta'lim
vazirligi
2018 yil "14" 06

O'ZBEK DIALEKTOLOGIYASI

FAN DASTURI

Vilim sohasi:	100000 – Gumanitar soha
Ta'lim sohasi:	120000 – Gumanitar fanlar
Ta'lim yo'nalishi:	5111200 – O'zbek tili va adabiyoti

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018 yil "14" 06 dagi "331"-sonli buyrug'ining 10-ilovasi bilan fan dasturi ro'yxati tasdiqlangan.

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiglashtiruvchi Kengashining 2018 yil "26" 05 dagi 2-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

Fan dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida ishlab chiqildi.

Tuzuvchi: f.f.d. Enazarov To'lib Djumanazarovich

Tagirizchilar:

Ashirboev S.

TDRU professori, filologiya fanlari
doktori, professor

Abdushukurov B.

TDO-TAU o'zbek tili va adabiyotini o'qitish
fakulteti dekani, f.f.d.

Fan dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2018 yil "25" 04 dagi 8-sonli bayonnomasi).

I. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

Ushbu dastur O'zbek filologiyasi fakultetining 2-bosqich bakalavr yo'nalishidagi talabalar uchun mo'ljallangan. O'zbekiston Respublikasi Birlinchi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq o'zbek shevalari milliy qadriyatlar tizimining bir bo'lagi sifatida hamma vaqt o'rganilishi va taqqiq etilishi lozim.

"O'zbek dialektologiyasi" talabalarda adabiy til va sheva unsurlarini farqlash nuqtayi nazaridan tahlil qilishga doir muayyan bilimga ega bo'lish va ularni amaliyotda tatbiq etish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon bevosita umaliy va ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalarida amaliy jihatdan alohida ahamiyat kasb etadi.

"O'zbek dialektologiyasi" asosiy fanlardan biri hisoblanadi. Ushbu fan «Hozirgi o'zbek adabiy tili», «O'zbek tili tarixi», «O'zbek xalq og'zaki ijodi» fanlari bilimlariga asoslanib ish ko'radi va aksincha, ushbu fanlar uchun nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

II. O'quv fanining maqsadi va vazifasi

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga o'zbek shevalarining eng muhim xususiyatlari, ularning murakkab dialektal tarkibi, leksik, fonetik va grammatik tabiati haqida barafsil tushuncha va ma'lumot berish, zarur sharoitlarda ulardan amalda foydalanish malakasini shakllantirishdan iborat.

"O'zbek dialektologiyasi" o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba:

- sheva lug'atlarini tuzish, transkripsiya prinsiplarini o'zlashtirib olishi va milliy tilning asosi bo'lgan shevalar, ularning dialektal xususiyatlari to'g'risida *tasavvurga ega bo'lishi*;
- o'zbek shevalarining muhim fonetik, leksik, grammatik xususiyatlarini farqlay olishi va ularni tushuntirib bera olish darajasida *bilishi*;
- turli metodlarda, ayniqsa, qiyosiy metod bilan shevalarni o'rganish, muayyan bir sheva haqida to'la ma'lumot berish *ko'nikmalariga ega bo'lishi*;
- muayyan bir sheva haqida to'liq ma'lumot berish va shevalarni muayyan guruhlarga kiritish *malakalariga ega bo'lishi kerak*.

III. Asosiy nazariy qisim (ma'ruza mashg'ulotlari)

O'ZBEK DIALEKTOLOGIYASIGA KIRISH

I-mavzu. Kirish. «O'zbek dialektologiyasi» fanining maqsad va vazifalari

"O'zbek dialektologiyasi" fanining "O'zbek tili va adabiyoti" yo'nalishi bo'yicha pedagoglar tayyorlashdagi ahamiyati. "O'zbek dialektologiyasi" kursining turlari, O'zbek shevalari milliy tilning quyi bosqichi, o'zbek tilining asosi ekanligi.

Tilshunoslikda sheva, dialekt, lahja terminlari definitsiyasi. O'zbek tilining dialektal tarkibi va ular murakkabligining ijtimoiy va tarixiy interpretatsiyasi. O'zbek dialektologiyasining hozirgi o'zbek adabiy tili, til tarixi, xalq tarixi, geografifiya fanlari bilan munosabati.

2-mavzu. Transkripsiya

Transkripsiya turlari. Fonetik va fonologik transkripsiya. Xalqaro transkripsiya. Transliteratsiya. Milliy transkripsiya. Turkiy tillar va lahjalarni o'rganishda qo'llaniladigan transkripsion belgilar. O'zbek shevalarini o'rganishda qo'llaniladigan transkripsiya. Lotin alifbosiga asoslangan yangi o'zbek yozuvdagi transkripsiya xos xususiyatlar.

3-mavzu. O'zbek shevalari tasnifi

O'zbek shevalarini tasniflashda yetakchi tamoyillar: hududiy, etnik, etnogenetik, ilsoniy, ilsoniy-hududiy (lingvoareal). O'zbek shevalari tasnifi talqini. Ularning yutuq va kamchiliklari.

4-mavzu. O'zbek shevalarining o'rganilishi

O'zbek shevalarining tarqalish hududlari. Turkiy tillar va lahjalarni o'rganishda M.Koshg'aryning «Devonu lug'otit turk» asrining ahamiyati. Abu Rayhon Beruniyning shevashunoslikka qo'shgan hisssasi. Mahmudxo'ja Behbudiy va Ashurali Zohiriyalarning o'zbek shevalari xususidagi muhim fikrlari. O'zbek xalq shevalarini o'rganishda rus turkologlarining ishtiroki. O'zbek shevashunosligida yaratilgan dialektologik tadqiqotlar.

5-mavzu. O'zbek shevalari fonetikasi va fonetik qonuniyatlari

O'zbek shevalarining fonetik xususiyatlari. Shevalar vokalizmi va konsonantizmi. O'zbek shevalaridagi va o'zbek adabiy tilidagi unillar munosabati. O'zbek shevalaridagi undoshlar tasnifining o'ziga xos jihatlari. Singarmonizm qonuni va uning turlari. Umluat. O'zbek shevalaridagi nutq tovushlarining kombinatori va pozitsion o'zgarishlari va turlari. Fonetik jarayonlar.

6-mavzu. O'zbek shevalari leksikasi va leksikografiyasi

O'zbek shevalari leksikasi tushunchasiga bo'lgan qarashlar. Shevalarning tarixiy jihatdan leksik gatlamlari. Shevalarning o'z va o'zlashgan gatlam so'zlari. Dialektal so'zda ma'no. Shevalararo leksik moslik (variant) masalasi. Sheva so'zlari va jarгонlar. O'zbek shevalari leksikografiyasi masalalari.

7-mavzu. O'zbek shevalari morfologiyasi va so'z yasash

O'zbek shevalarining morfologik xususiyatlari. O'zbek adabiy tilidagi va o'zbek shevalaridagi turlanishning farqi. Grammatik son, kelishik, egalik, shaxson, mayl, zamon kategoriyalariga xos shakllar, fe'ling funktsional shakllarining shevalardagi o'ziga xosliklari. So'z yasashdagi shevaga xos xususiyatlar talqini.

8-mavzu. O'zbek shevalari sintaksisi

Dialektal sintaksis. Shevalarda so'z birlikmalari, izofali konstruksiyalar, to'liq va to'liqsiz gaplar, so'z-gaplar. Dialektal sodda va qo'shma gaplar. Dialektal matn hamda unga xos xususiyatlar tavsifi.

9-mavzu. Qarluq-chig'ir-uyg'ur lahjasining muhim xususiyatlari

Qarluq-chig'ir-uyg'ur lahjasiga birlashuvchi dialekt va shevalarning fonetik, leksik, grammatik xususiyatlari.

10-mavzu. Qipchoq, o'g'uz lahjalarning muhim xususiyatlari

Qipchoq, o'g'uz lahjasiga birlashuvchi dialekt va shevalarning fonetik, leksik, grammatik xususiyatlari talqini.

11-mavzu. Areal lingvistik

Areal lingvistikaning til va shevalarni o'rganish usullari. Izoglossa tushunchasi. Dialektal xarita va atlas, uning yaratilish tarixi va ahamiyati. O'zbekiston Respublikasida areal lingvistikaning vujudga kelishi va rivojlanishi.

12-mavzu. Adabiy til va dialekt munosabati

Sheva, milliy til va adabiy til. Badiiy asarlardagi dialektizmlar va ularning turlari. O'zbek dialektologiyasi fanining til va adabiyot o'qituvchilari uchun ahamiyati. Dialektal xalo tushunchasi, ularni bartaraf etish yo'llari. Dialektizmlarning adabiy tilga singish jarayoni. Avtonomiya va geteronomiya. Bir xalq tilining turli davlat hududlarida alohida-alohida mustaqil rivojlanishi, yozuvdagi farqlar, adabiy me'yorlarning o'ziga xosligi.

IV. Amaliy va seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy mashg'ulotlarni bajarish orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, targatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqola va tezislarni chop etish orqali talabalar bilimni oshirish, sheva vakillaridan 20-30ta gaptan iborat dialektal matnlarni yozib olish, o'tilgan mavzular bo'yicha ko'rgazmali qur'ollar tayyorlash.

Amaliy mashg'ulot uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Transkripsiya. Shevaga oid matnlarni transkripsiyada yozish va o'qish.
2. Sheva matnlarning fonetik tahlili. Shevalarga oid matnlarning fonetik xususiyatlari.
3. Sheva matnlarning fonetik tahlili. O'zbek shevalarida uchraydigan fonetik qonuniyatlarni ustida ishlash.

4. Sheva matnlarining leksik tahlili. Shevalarga xos matnlarining leksik xususiyatlari.
 5. Shevalarga xos soʻzlarni mavzuiy guruhlariga boʻlib oʻrganish.
 6. Sheva matnlarining morfologik tahlili. Shevalarda turlanish.
 7. Sheva matnlarining morfologik tahlili. Oʻzbek shevalarida feʼlga xos xususiyatlar.
 8. Shevalarda soʻz yasalishi va sintaktik tahlil.
- Izoh:** Mazkur toʻyxatdagi mavzulardan amaliy mashgʻulotlar uchun ajratilgan soatlar hajmiga mos holda foydalanish tavsiya etiladi.

Seminar mashgʻulotlari boʻyicha koʻrsatma va tavsiyalar

Seminar mashgʻulot darslari savol-javob, tahlil, tushuntirish jarayonining koʻrgazmali qurollar, sheva vakillaridan yozib olingan 20-30ta gapdan iborat dialektal matnlar ni mustaqil tahlil qilish, kompyuter ishlatmalari va maxsus tayyorlangan kartochkalar asosida olib borilishi tavsiya qilinadi.

Seminar mashgʻulotlari uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Sheva, dialekt, lahjalarning xususiyatlari, ularni oʻrganish metodlari.
2. Dialektlarni tadqiq qilish usullari.
3. Oʻzbek shevalarining oʻrganilishi tarixi.
4. Oʻzbek shevalarining fonetikasi, uning hozirgi oʻzbek adabiy tiliga munosabati.
5. Oʻzbek adabiy tilining tayanch shevalari.
6. Shevalar lugʻati. Dialektal leksikografiya masalasi.
7. Shevalarda mustaqil va yordamchi soʻzlar.
8. Oʻzbek tilining qarluq, qipchoq va oʻgʻuz lahjalariga xos xususiyatlar.
9. Areal lingvistikasi.

V. Mustaqil taʼlimni tashkil etishning shakli va mazmuni

“Oʻzbek dialektologiyasi” fanini oʻrganuvchi talabalar auditoriyada olgan nazariy bilimlarni mustahkamlash va tishunoslikning amaliy masalalarni hal qilishda koʻnikma hosil qilish uchun mustaqil taʼlim tizimiga asoslanib, kafedra oʻqituvchilari rahbarligida, mustaqil ish bajaradilar. Bunda ular qoʻshimcha adabiyotlarni oʻrganib hamda Internet saytlardan foydalanib, referat va ilmiy maʼruza tayyorlashadi, amaliy mashgʻulot mavzusiga doir uy vazifalarini bajarishadi, berilgan mavzu doirasida koʻrgazmali qurollar va slaydlar tayyorlashadi.

Talaba mustaqil ishini tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

1. Amaliy mashgʻulotlarga tayyorgarlik.
2. Darslik va oʻquv qoʻllanmalar boʻyicha fanning boblari va mavzularini oʻrganish.

3. Tanlangan sheva boʻyicha yigʻilgan materiallarni tahlil qilish.
4. Maxsus adabiyotlar boʻyicha fanlar boʻlimlari yoki mavzulari ustida ishlash.
5. Talabanning oʻquv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bogʻliq boʻlgan mazkur fan boʻlimlari va mavzularni chuqur oʻrganish.
6. Faol va muammoli oʻqitish uslubidan foydalaniladigan oʻquv mashgʻulotlarini yoʻlga qoʻyish.
7. Masofaviy (distanston) taʼlimni tashkil etish.

Mustaqil ishlar uchun tavsiya etiladigan mavzular

1. Oʻzbek shevalarining oʻrganilish tarixi.
2. Shevalarni tadqiq qilish usullari.
3. Oʻzbek shevalari tasnifi.
4. Professor Ye. Polivanov tasnifi.
5. Professor V.V. Reshetov tasnifi.
6. Transkripsiya va uning turlari.
7. Transkripsiyani oʻzlashtirish va sheva materiallarini matnlar shaklida yozish.
8. Oʻzbek shevalarida undosh va unillar tasnifi.
9. Shevalarda fonetik hodisalar talqini.
10. Shevaga oid matnlarining leksik xususiyatlari.
11. Shevalarga xos soʻzlarning mavzuiy guruhlari.
12. Maʼlum bir sheva lugʻatini tayyorlash.
13. Shevalararo moslik (variant) masalasi.
14. Shevaga oid matnlarining morfologik xususiyatlari.
15. Shevalarda feʼlning kategorial va nokategorial shakllari.
16. Shevaga oid matnlarining sintaktik xususiyatlari.
17. Oʻzbek tilining qarluq-chigʻil-uygʻur lahjasiga xos xususiyatlar.
18. Oʻzbek tilining qipchoq lahjasiga xos xususiyatlar.
19. Oʻzbek tilining oʻgʻuz lahjasiga xos xususiyatlar.
20. Areal lingvistikaning oʻzbek tishunosligidagi oʻmi.
21. Adabiy til va dialekt muammosi.

Izoh: Mazkur toʻyxatdagi mavzulardan mustaqil taʼlim mashgʻulotlari uchun ajratilgan soatlar hajmiga mos holda foydalanish tavsiya etiladi.

VI. Asosiy va qoʻshimcha oʻquv adabiyotlar hamda axborot manbalari Asosiy adabiyotlar

1. Karimov I.A. Barqamol avlod – Oʻzbekiston taraqqiyotining roydevori. – Toshkent: Oʻzbekiston, 1997.
2. Ражабов Н. Узбек шеваўунослиги. – Toshkent: Ўқитувчи, 1996.
3. Тўйчибоев Б., Хасанов Б. Узбек диалектологияси. – Toshkent: Абдулла Кодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004.